

**Kavsar Turdiboyevning ushbu kitobi sizlarni
havyonot bo'gi bo'ylab sayohatda chorlaydi**

**© Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutining
«Pediatri» nashriyoti bo'limi**

HAYVONOT BOG'I

Mana hayvonot bog'i,
-Hayvonlarning yotog'i.
Go'yo kattakon qayiq,
Hovuzga suzar Ayiq.
Sakrab oynaydi Qoplon,
Unga qo'shunidir Sherxon.
Juda juda katta Fil
Afrikadan kelgan, bil
Katakda menman zo'ri
Shumshayib boqar Bo'ri.
Juda chaqçon va quvnoq,
Maymun oshar o'mbaloq.
Uyqum kelmayapti: Oh!
Yig'laydi tinmay timsoh.
Nimagadir tuyalar,
O'rkachidan uyalar.
Barchasini tomosha
Qildik biz katak osha.

AYIQ

Go'yo kattakon qayiq,
Hovuzda suzar ayiq.
Qoqip qo'yar ustini,
Turli uning po'stini.
Oq, qo'ng'ir va jigarrang,
Lapanglap yurar arang.

Rosa uyquni urar,
Och qolib barmoq so'rar.

BO'RI

Bo'ri uvlab «uv» deydi,
Mening ishim shu deydi.
Qani bergan ovqating,
Chelagingda suv deydi?
Qo'y buzoqning sho'riman,
Zaiflarning zo'riman.
«Shoshmay tur!»da sen ko'rgan,
Quyov quvgan bo'riman.
Yurar edim qir osha,
Endi bo'ldim tomosha.
So'zlashaman siz bilan
Faqatgina sim osha.

BEGEMOT

Bege, bege, begemot!
Seni nelar qilar mot?
Yugurishda karkidon,
Sakrashda shoxdor bizon,
Uxlashda ayiq, timsoh,
Vaznda fil kattaroq.
Suzishda kitu pingvin,
Aqlda esa del'fin.

DEL'FIN

So'zlar chiqarib tovush,
Suzar – kiymasdan kovush.
Baliqni to'rga haydar,
So'zsiz rahmatin aytar.
Qachonki cho'ksa birov
Yordamga shoshar darrov.

ECHKIEMAR

Echki, echki, echkiemar,
Yelinlardan sut emar.
Oni, nafsini tiymagan,
Birov rizqin qiymagin!
O'g'irlik xo'p yomondir.
Qo'lga tushsang tamomdir.

FIL

Afrikadan kelgan bil,
Juda-juda katta fil.
Badani o'ttiz quloqch,
Xartumi – uzun yog'och.
Qulog'i yoyma chalpak,
Suv ichar chelak – chelak.
Tanasi botmon – botmon,
Gapim rostmi yo yolg'on?

GIPPOPOTAM

Uxlab turib Gippopotam
Dedi: qani mening otam?
Dedo: qani mening onam?
Shu balchiqmi mening xonam?
Tezroq yasang marmar hovuz,
Qirg'og'ida yursin tovus.
Chor atrofda yursin oqqush,
Men shulami ko'ryapman tush.

HAKKA

Siz haqdami topishmoq,
Dumi qora, qomi oq?
Hakka xola,
Hakka xola!
Yurmang aslo yakka, xola
Yolg'iz yashash ko'p qiyin
Qizimaydi hech oyin.
Qushlar bo'lsa ko'p-ko'p,
O'ynash mumkin to'p-to'p
Zo'rdir birga yayrashsak,
Qo'shiliship sayrashsak
Qanday yaxshi, qanday soz,
Eshitilsa jo'r ovoz

ILON

Muchalingda yilim bor,
O'ynab turgan tilim bor.
Qovog'im yo'q, ko'zim bor
Yo'lim - ilon izim bor.
Bo'lsan ham zahar, chaqar
Emasman chaqma, chaqar
Tashlasam ham po'stimni,
Tashlamayman do'stimni.

JAYRA

Jayra, Jayra,
Igalaring qayra.
Qayroq toshing bormi?
Sutli oshing bormi?
Olsang sen yoy o'qotar,
Dushmanlaring yo'qotar.

JIRAFa

Yashasa qay tomonda,
Uning boshi osmonda.
Bir gap aytsangiz, qarang,
Uch kunda yetar arang.

KENGURU

Kalta, jundor paltali,
Yolg'iz o'zim xaltali.
Vatanim - Avstraliya

Vatanni hamma suyar.
Bizda ko'p turli hayvon,
Bor xaltali olmaxon.
Hatto xaltali sichqon,
Ayiq, suqsur xaltali
Kalta, jundor paltali.

KAPTARLAR

Hayron qolar Parizod:
Nega bunday atalar
Deyishar, goh do'ppili,
Goh paypoqli kaptarlar.
Nega odam undaymas,
Javob izlar so'roqqa,
Ishlatmasdik pullarni
Do'ppiga va paypoqqa.

LAQQA BALIQ

Laqqa baliq, laqqa baliq,
To'xtab qolma taqqa baliq.
Qochgin turli yoqqa, baliq,
Sezilma va bilinma,
To'rga aslo ilinma.

MAYMUN

Maymun, maymuncha,
Sakraysan buncha.
Pistalar chaqib,

Oynaga boqib.
Soching taraysan,
Yo'lga qaraysan.
Tinch o'tir birpas,
Bu o'rmon emas.

NAYZA BALIQ

Menga urmang do'q-do'q
Mening nayzam yo'q-yo'q
Jag'im nayzadek uchli,
Tishim arradek kuchli,
Men g'aroyib tUSDaman
Tez suzishga ustaman.

OQ LAYLAK

Nog'ora chalar Laylak,
Tumshug'ida u tak-tak
Balandlikka qurar uy
U haqda sen bilib qo'y:
Hindistondan kelgan lo'k
Bo'yni ola, ko'zi ko'k.

PINGVIN

Oyog'im kurak,
Suzganda eshkak.
Sho'ng'ib bexato,
Chopaman hatto.

Yarim qora, oq,
Uchmayman biroq.
Bordir qanotim,
Pingivindir otim.

QIZILISHTON

-Qizilishton, Qizilishton
Senda bormi, aytgin, vijdon.
Taq-tuq! Taq-tuq! Taq-tuq!
Halovat yo'q! Halovat yo'q!
-Mehnat qilish menga odat,
Menga solma ko'p malomat.
Kavaklarni kavlayapman,
Hashoratni ovlayapman

QULON

Yolg'on, yolg'on, yolg'on,
Qu'shman desa qulon.,
Bo'lmas baliq desak,
U yovvoyi eshak.
Manzili ko'p oson,
Eron, Mu'g'uliston.
Afg'on, Turkimaniston,
Juda o'txo'r hayvon

RAXMDIL QUYON

«R» harifiga yo'q hayvon,
Topdim, rahimdil quyon.
O'zgalar uchun yashar,
Oziqlarni ulashar.
Bu foydami yo ziyon,
Bo'lsa rahimdil quyon.

SAQOQ QUSH

Saqoq qushman, saqoqman,
Sho'ng'ishga xo'p chatoqman.
Tumshug'im emas kalta,
Pasti zarg'aldoq xalta.
Unda baliq saqlayman
Shu taomni xohlayman.

TIMSOH

Ko'z yoshin to'kar Timsoh, oh-voh.
Der menda nima gunoh, oh-voh
Bu gaplarga chidab ko'r, oh-voh.
Meni derlar odamxo'r, oh-voh
Bu qanday tuhmat-yorliq, oh-voh.
Yeganim faqat baliq, oh-voh.
Men axir boshqa Timsoh, oh-voh,
Tuhmatga chiday qandoq, oh-voh

TOSHBAQA

-Ey toshbaqa, toshbaqa,
Nega usting toshdaqa?
-Kerakmas ipak, movut,
Bu kiyim menga – sovut.
Ishonchimni oqlagan,
Ko'p dushmandan saqlagan.
Juda qulay kiyimdir,
Uxlaganda uyimdir

TO'TI

Manman to'ti Shara-bara,
Qilar hammani maskara.
Deydi: Filni, Filni qara,
Muncha semiz u tasqara?
Jirafa u uzun terak,
Kenguru - xaltali O'rdak;
Xaltasidan chuldur-chumak,
Nahot shuni bilmas, qara.
Endi qara, endi qara,
Manman to'ti Shara-bara,
O'zi bo'libdi maskara,
O'zi bo'libdi tasqara.
Birovdan kulmagin zinhor,
Sendan ham kulguvchilar bor,
Bu so'zlarni takror-takror,
Aytar To'ti Shara-bara.

TOVUS

Yurgan edim bog' bo'ylab,
Ko'zim tushdi hovuzga.
Va yonida tovlanib,
Turgan go'zal tovusga.
Qiziq, sira uchramas,
Urushishu, koyishga,
Ketkazsa ham umrini,
Patlarini yoyishga.

TULKI

Eh tulkicha, ey ayyor,
Yolg'onchisan, ko'p beor.
Aldashlardan to'ymading,
Firibingni qo'ymading.
O'zing ham bir nafasda,
Paydo bo'lding qafasda.

UKKI

Yapaloqqush, yapaloq,
Kattagina shapaloq.
Ko'z katta, o'tkir tirnoq,
Gopu-jar unga yotoq.
Ozig'i kemiruvchi,
Zararli yemiruvchi

VOHMAQUSH

Vohmaqush, vahima,
Faqat nomi vahima
O'zi, o'zi mitti qush
Oh, qirilib ketdi qush.
Nomi uning shu tobda,
Katta qizil kitobda.

XO'JA SAVDOGAR

Bo'lmang hayron,
Bo'lmang hayron,
Bu qanday qush,
Yoki hayvon
Ham savdogar,
Hamda xo'ja
Qush mittidir
Xuddi jo'ja.
Cho'chir ko'rsa odamlarni,
Darrov sezar qadamlarni.

YO'LBARS

Yo'lbars, yo'lbars,
O'yla birpas,
Senga hamma dushman emas.
Qayrama tish, bu yomon ish.
Gazab, asab katta tashvish.
Irillama, qilma hamla,
Shunda do'sting bo'lar hamma.

YUMRONQOZIQ

Yumronqoziiq, yumronqoziiq,
Aytgin, senga nima oziq.
Murabbomi, muzqaymoqmi,
Kulchatoymi yo quymoqmi.
Istagim yo'q qopin qo'y moq,
Kerak emas kulcha, quymoq.
Menga hamroh yulduzlardir
Yemishlarim ildizlardir.

ZEBRA

Qiziiq, qiziiq, juda qiziiq,
Otning usti chiziiq, chiziiq.
Chiziiq chizgan qaysi usta
Bir chiziiqli daftar tusda?
Bolajonlar esa dodlar
Nega yo'qdir katak otlar?

O'RDAKBURUN

Topingchi uning turin,
Nomidir o'rdakburun.
Burnin qilishar ermak,
Nomida bordir o'rdak.
Termuladi yulduzga,
Dumi o'xshar qunduzga.
Tuxumidan chiqib but,
Bolalari emar sut.

G'OZLAR

Gozlar desa g'a-g'a-g'a,
Bu degandi xa-xa-xa.
Don bersangiz ko'p-ko'p-ko'p,
Biz ko'namiz xo'p-xo'p-xo'p.
Gozlar uchun juda soz,
Fasli bahor, fasli yoz.

SHER

Uzun yolli sherman men,
Sizga shunday derman men.
Yaxshilardan zo'r bo'lmang,
Menday noshud, ko'p bo'lmang.
Zo'r hayvondan yutilmang,
Yoki mendek tutilmang.
Zo'r edimku zo'rlikka,
Ne bo'ldi men sho'rlikka.

CHIGIRTKA

Chirillaydi chigirtka chir-chir-chir,
Xonamizga mehmonga kir-kir-kir.
Davra qurib o'tirgan payt-payt-payt,
Qo'shig'ingni bizlarga ayt-ayt-ayt.
Titramagin chigirtka dir-dir-dir,
Yuzlaringni ko'rsatgin bir-bir-bir.
Qo'lingdagi naymi yo soz-soz-soz,
Faqat aytgin bizlarga rost-rost-rost.

Xafa bo'lma chigirtka tur-tur-tur,
Quvlamaymiz sen sakrab yur-yur-yur.
Tayyorladik sen uchun joy-joy-joy,
Ichasanmi chigirtka choy-choy-choy?
Endi senga haqiqiy o'rtoqmiz,
Xohlaganda kelaver so'roqsiz.

NAHANG BALIQ

Ishtaham karnay,
Ishtaham surnay.
Bu og'ir darddan,
Qutulay qanday.
Nimani tutsam,
Yamlamay yutsam.
Faqat ovqatni,
Ovqatni kutsam.
Do'xtir, kuzating
Meni tuzating.
Doringiz bo'lsa,
Tezroq uzating.
Hech kim g'ing demas,
Axir ish emas,
Hayot yeyishdan,
Iborat emas.

MISH – MISH

Mish – mish, Mish – mish
Hayvonot bog'ida yangi katak ochilgan emish.
Kechamikan, bugunmikan kimdir borib qarasa,

Istiqomat qilar ekan u katakda dangasa.
Katagida yotar ekan, erta-yu kech, yozu qish,
Qancha ko'proq qimirlasa
Shuncha ko'p olarkan besh.
Katagida yotar ekan, ovqatini yalarkan
Dangasalar bundan boshqa
Qanday ishga yararkan

MUNDARIJA.

1. Hayvonot bog'i	3
2. Ayiq	3
3. Bo'ri	4
4. Begemot	4
5. Del'fin	5
6. Echkiemar	5
7. Fil	5
8. Gippopotam	6
9. Hakka	6
10. Ilon	7
11. Jayra	7
12. Jirafa	7
13. Kenguru	7
14. Kaptarlar	8
15. Laqqa baliq	8
16. Maymun	8
17. Nayza baliq	9
18. Oq laylak	9
19. Pingvin	9
20. Qizilishton	10
21. Qulon	10
22. Raxmdil quyon	11
23. Saqoq qush	11
24. Timsoh	11
25. Toshbaqa	12
26. To'ti	12

27. Tovus.....	13
28. Tulki.....	13
29. Ukki.....	13
30. Vohmaqush.....	14
31. Xo'ja savdogar.....	14
32. Yo'lbars.....	14
33. Yumronqoziq.....	15
34. Zebra.....	15
35. O'rdakburun.....	15
36. Gozlar.....	16
37. Sher.....	16
38. Chigirtka.....	16
39. Nahang baliq.....	17
40. Mish – mish.....	17

Мақтабгача ва кичик мақтаб юшидаги болалар уаун

Rassom: Abror Oripov

Muharrir: Azamat Egamberdiev

Musahhib: Dilfuza Rustamova

Уз ПФИТИ офсет лабораторияси
Тешига рухсат этилди 20.05.2003 й.
Босишга рухсат этилди 16.06.2003 й.
Хажми 2 б.т. Бичим 60x84/16.
Буюртма № 33. Адади 300 дана
Боҳоси кешилган нарҳда